



## HOZIRGI ZAMON OILALARIDA ER-XOTIN MUNOSABATLARIGA XOS INQIROZ SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

---

*Temirov Abdumalik Ikrom o‘g‘li  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi zamon oilalarida er-xotin munosabatlari, oilalarda yuzaga keladigan inqirozlar va ulardan chiqish yo‘llari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Oila, oilaviy munosabatlar, er-xotin munosabatlari, inqiroz, inqirozning yuzaga kelishi, inqirozning belgilari.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF A CRISIS IN A COUPLE’S RELATIONSHIP IN MODERN FAMILIES

**Abstract.** The article talks about marital relations in modern families, crises that occur in families and ways to get out of them.

**Keywords:** Family, family relations, couple relations, crisis, occurrence of crisis, signs of crisis.

Oilaning vazifalari, ya’ni bolalar tug‘ilishi va tarbiyasi, oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish (uy, oziq-ovqat, kiyim-kechak), uy vazifalarini hal qilish (ta’mirlash, kir yuvish, tozalash) kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ikki juft orasidagi bu munosabatlar vaqt o‘tgan sayin o‘zgarib boradi. Oilada ikki inson istak-xohishiga ko‘ra jinsiy aloqaga ehtiyoj sezadi, buni mukammal dinimiz go‘zal tarzda izohlab beradi. Islom dini ushbu amalni solih niyat bilan bog‘laydi. Imom Ibn al-Qayyum o‘zining “Zad al-ma‘ad” kitobida: er-xotin o‘rtasidagi aloqalar haqida, bu aloqalar orqali oila sog‘lomligi saqlanib qolinadi va u orqali er-xotin umumiyl maqsadini amalga oshirishi mumkin.

Er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro aloqa (jinsiy munosabat) uchta asosiy maqsad uchun yaratilgan:

1. Inson zotini saqlash va ko‘paytirish.
2. Suvni chiqarib yuborish (sperma). Tanada saqlanib qolsa, tanaga zarar yetkazishi mumkin.
3. Jismoniy istaklarni bajarish va jismoniy zavqdan bahramand bo‘lish.



Shifokorlar jinsiy aloqa salomatlikni saqlash vositalaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Uning afzalliklari orasida o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi, harom narsalardan uzoqlashishga imkon beradi va bularning barchasiga ayol uchun ham erishadi. Zamon rivojlanishi bilan oilaviy munosabatlar ham o‘zgarib takomillashib bordi. Oiladagi munosabatlar ham rivojlanishi bilan birga har xil ziddiyatlar ham paydo bo‘la boshladi. Ularni tartibga solish maqsadida erkak-ayol munosabatlari qonuniylashtirib qo‘yildi. Ushbu holat bilan ikki yoshning o‘zaro aloqalarda huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (OK) – oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a’zolari (ya’ni, er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar va oilaning boshqa a’zolari) o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati sifatida qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi qarori bilan tasdiqlanib, ushbu yilning 1-sentabrdan kuchga kirdi. Amaldagi Oila kodeksi bir qator oilaviy huquqiy munosabatlarni yangicha hal etgan. Chunonchi, milliy negizlarga asoslanganligi (quda-andachilik, qarindosh-urug‘chilik, bobo-buvilar va nabiralar o‘rtasidagi munosabatlarning yangicha talqini), umuminsoniy qadriyatlar aks etganligi (nikoh shartnomasi institutining kiritilishi, nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi) kabilarni o‘z ichiga oladi. Oila qurayotgan ikki insonning kelajakdagi sog‘lom hayoti uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tishi juda muhim. Ulardan tug‘iladigan farzandlar ham aqlan va jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetishi yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchiligidizda oilaviy munosabatlarda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi Oila kodeksining dastlabki normalaridayoq (Oila kodeksi, 2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi) qayd etilgan bo‘lib, oila erkak va ayolning ixtiyoriy ravishdagi ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligiga asoslanadi. Qonunchiligidizga muvofiq, nikoh munosabatlariga kirishishdagi asosiy shartlardan biri bo‘lgan yosh chegarasi ayol uchun 17, erkak uchun 18 yosh etib belgilangan. Ayrim mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yosh chegarasining belgilanishi bir tomonidan yoshlarning oilaga jismonan va ma’nан tayyor bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomon dan yosh chegarasining bir xil ekanligi gender tenglik holatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida jumladan: Rossiya, Gruziya, Qozog‘iston, Moldova, Malayziya, Iraq kabi bir qator davlatlarda rasmiy nikoh yoshi 18 yosh, Kanada davlatida 16 yosh, Pokiston va Afg‘onistonda nikoh yoshi



ayollar uchun 16, erkaklar uchun esa 18 yosh, Suriyada esa bu holat tegishli ravishda ayollar uchun 16, erkaklar uchun 17 yosh etib belgilangan. Insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgani sari odamlarning o‘zлari ham, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosobatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlар orasida eng samimiy, eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Buning sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligi, sanoat ishlab chiqarilishi, umuman, xalq xo‘jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo‘lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o‘ziga xos yangicha talablar qo‘ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomonidan, odamlarning o‘zlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-psixiologik, fiziologik va boshqa o‘zgarishlar o‘zaro muloqot munosabatlari doirasining ma’lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma’lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotсional zo‘riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda.

Bularning ta’sirida oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o‘z ifodasini topadi. Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funksiyalaridan biri relaksatsiya funksiyasidir. Bu oila a’zolarining jinsiy, emotсional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yanada tiklash demakdir. Ma’lumki, fantexnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallahushi, xalq xo‘jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilarga qaraganda ko‘proq jismoniy ruhiy zo‘riqishlar bermoqda. Bugungi va ertangi kun sanoati, ishchi-xodimdan bor imkoniyatini safarbar qilib butun vujudi bilan ishlashni va o‘zining kasb-hunar mahoratini muntazam oshirib borishini taqozo qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlari jadalligining bunday tarzda davom etishi shu jarayonlar ishtirokchisi, boshqaruvchisi-insonni tezda toliqib, o‘zining mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Ish kuni davomida zo‘riqish bilan ishlagan xodim, ishdan so‘ng o‘z uyida oila a’zolari qarshisida boshqa tashvishlarini unutib, ular ko‘rsatadigan mehr-muhabbatdan bahramand bo‘lib, ular bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotdan, emotсional qo‘llab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy quvvat olishi, ertangi kun mehnat faoliyatiga o‘zini qayta tiklab olishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa uning oilasida tinchlik, totuvlik, o‘zaro tushunish, hurmat, mehr-oqibat, ijobiy psixologik iqlim hukm surmog‘i lozim. Aks holda shaxs oilada emotсional-ruhiy



jihatdan o‘zini qayta tiklab ololmaydi. Bu esa oqibatda shaxsning mehnat faoliyatida turli xatolarga, ishga sifatsizlikka, jarohatga yo‘l qo‘yilishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi funksiyalarning muvoffaqiyatli bajarilishi har qanday oila uchun oila baxtini ta’minlovchi mezon hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, oila jamiyatning bir bo‘lagi, uning asosiy yacheykasidir. Oilaning o‘z funksiyalarining muvoffaqiyatli bajarilishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog‘lomligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, jamiyatni sog‘lomlashtirish uchun eng avvalo oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy muammolarini hal qilishga hissa qo‘shishini ta’minalash lozim.

Oilaviy munosabatlar sohasidagi sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, har bir oila rivojlanishining ma’lum bosqichlarini bosib o‘tganda, inqirozlarga duch keladi.

Oiladagi eng muhim inqirozlardan birini maishiy qiyinchiliklar tashkil qiladi.

Biroq, kundalik hayotdan tashqari, oila mavjudligining har qanday bosqichida inqirozni keltirib chiqaradigan boshqa sabablar ham mavjud. Oilaviy hayotdagi muammolar, turmush o‘rtoqlardan bittasi yoki har ikkalasi psixologik inqirozlarga duch kelganida, masalan, o‘rta yoshdagi inqirozda paydo bo‘ladi. Bu yoshda

kuzatiladigan inqirozda kishi o‘z hayotini qayta ko‘rib chiqib, o‘ziga nisbatan norozilikni his qiladi, bu uning har qanday o‘zgarishlarga nisbatan xatti-harakatida namoyon bo‘ladi va oilaviy hayotiga ham ta’sir o‘tkazadi. Oilaviy hayotda jiddiy o‘zgarishlar farzandning tug‘ilishi, uning mакtabga chiqishi, o‘tish davrlari, o‘z

tug‘ilgan uyini tark etishi, shuningdek mehnat faoliyatidagi har qanday qiyinchiliklar, qarindoshlar bilan o‘zaro munosabatlardagi muammolar, moliyaviy ahvolning yomonlashishi va yaxshilanishi bilan sodir bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari jiddiy kasallik, o‘lim, ishdan bo‘shatish, imkoniyati cheklangan farzandlar tug‘ilishi oilaviy munosabatlarda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

### **Oilada yuzaga keladigan inqirozning belgilari:**

1. Turmush o‘rtoqlarning jinsiy munosabatga bo‘lgan istagining pasayishi;
2. Bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liq muammolar, janjal va o‘zaro haqoratlar;
3. Er-xotin o‘z muammolari va quvonchlarini o‘zaro baham ko‘rmasliklari;
4. Turmush o‘rtoqlardan biri muntazam ravishda ikkinchisining istak va fikrlariga bo‘ysunishga majbur qilinishi.

Odatda oilaviy hayotning bir nechta xavfli “yoshlari” mavjud. Oilaviy hayotning birinchi yilda turli muammolar, qiyinchiliklar yuzaga kelishi oqibatida ajrim holatlari kuzatilishi mumkin. Chunki er-xotinlar oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarga, kundalik hayotning sinovlariga dosh berolmaydi.



Bundan tashqari, o‘zaro kelishmovchiliklarning sabablari mas’uliyatni bo‘yniga olmaslik, bir-biriga moslashishda kuzatiladigan qiyinchiliklar va hokazo bo‘lishi mumkin.

Oilaviy hayotning 3 yildan 5 yilgacha bo‘lgan davri. Ushbu davrda deyarli har bir oilada turmush o‘rtoqlar o‘zlarining kasbiy faoliyati jihatidan o‘sishi bilan shug‘ullanadilar. Bu davrda juftliklar uy-joy muammosini hal qiladilar, farzandlar tug‘ilib katta bo‘la boshlaydi. Doimiy ravishda jismoniy va asabiy zo‘riqish, bir-biriga vaqt ajrata olmaslik er-xotinni bir-biridan uzoqlashtiradi, buning natijasida sevgi-muhabbat hissi asta-sekin do‘stlikka aylanib boradi.

7 yildan 9 yilgacha bo‘lgan davr. Bu davr munosabatlarning barqarorligi bilan ajralib turadi. Bolalar ulg‘aygan, hamma narsa odatdagidek davom etadi. Biroq, bu bosqichda er-xotinlar oilaviy hayotda umidsizlikka duch kelishlari mumkin, chunki bu oila endi ular oldin tasavvur qilganidek emas. Chunki har ikkala turmush o‘rtoq ham yangi, g‘ayrioddiy his-tuyg‘ularni xohlaydi.

16-20 yillik nikohdan keyin yana bir jiddiy inqiroz yuzaga kelishi mumkin. Bolalar voyaga yetadi, kasb-hunar egallay boshlaydi. Hayot bir maromda kecha boshlaydi. Deyarli yangi va qiziqarli narsalar uchramaydi. Hayot o‘tib borgan sayin ko‘p ishlarni qilishim kerak degan qo‘rquv paydo bo‘la boshlaydi.

Psixolog Anetta Orlovaning fikricha: Oilaviy hayotning bu davri er-xotinning o‘rta hayot inqiroziga to‘g‘ri keladi. Er-xotin o‘z tajribalarini hozirgi zamon nuqtai nazaridan baholaydilar. O‘tmishda erisholmagan narsalari uchun pushaymon bo‘ladilar. Ular ko‘pincha hayotning ma’nosи, maqsadlar haqida gapiradilar. Bu davrda er-xotin bir-birlarining manfaatlarini hisobga olgan hoda, umumiy maqsadlarni belgilab olishlari kerak. O‘zlariga doimiy e’tibor berishlarini kutmasdan, bиргаликда harakat qilishlari kerak. Bu davrda yuzaga keladigan yana bir qiyinchilik voyaga yetgan farzandlarning mustaqil tarzda yashay boshlashi bilan bog‘liq. Chunki er-xotin ko‘p yillar davomida o‘z manfaatlarini unutib, farzandining kelajagi uchun harakat qilishgan. Endi farzandlar mustaqil hayot kechira boshlaganliklaridan keyin, er-xotinga yangi sharoitga moslashish, ko‘nikish oson bo‘lmaydi. “Agar bolalar endi bizning g‘amxo‘rligimizga muhtoj bo‘lishmasa, biz nima uchun bиргамиз” degan savol tug‘ilishi mumkin. Bundan tashqari, er-xotinning jinsiy faolligi asta-sekin pasayib boradi va buning natijasida er yosh juftni xohlay boshlaydi. Agar er-xotin o‘zaro yaqinlikni saqlay olsalar, bu bosqichda ularning munosabatlari yanada mustahkamlanadi. Bu davrda kuzatiladigan inqirozdan chiqish uchun: er-xotin sabr-toqatni o‘rganishi, bir-birini tushunishi kerak. O‘rta yoshdagi inqiroz erkaklarga ham ayollarga ham ta’sir o‘tkazadi. Er-xotin hayotdan



yangi narsalarni o‘rganishi, shuningdek mas’uliyatli bo‘lib muammolarni birgalikda hal qilishni o‘rganishi kerak. Bundan tashqari bu bosqichda bolalarda oilaga bo‘lgan munosabatni rivojlantirishda ota-onas munosabatlarining namunasi alohida o‘rin tutadi.

Inqirozdan chiqish yo‘llaridan biri rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish bo‘lsa, ikkinchisi, munosabatlarning buzilishi. Og‘riqli yechimlar ham bor. Bu aslida yechim emas, balki haqiqiy muammolarni hal qilishdan voz kechish yoki qarorni kechiktirish: bu xiyonat, giyohvandlik, jiddiy kasalliklar va boshqalar.

Ko‘pchilik namunali oilada tarbiya topgan yoshlar, o‘zlarining bo‘lajak oilalari uchun o‘z ota-onalarini ideal deb hisoblaydilar. Shunday ideal oila qurishni istagan yoshlarning esa turmushlari kutilganidek kechmasa, moslashish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar, inqirozlar oldida esankirab, oila qurishda adashganliklaridan noliy boshlaydilar. Shu sababdan ham er-xotin munosabatlarini faqat yaxshi tomondan ko‘rsatish emas, balki, bu munosabatlarda uchraydigan, real hayotda mavjud psixologik holatlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shundagina yoshlарimizda oila haqida nisbatan adekvat tasavvur shakllanadi. Yosh oila yuzaga kelganidan so‘ng unda er-xotin munosabatlarining rivojlanishiga xalal beradigan ko‘plab ijtimoiy-psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar ham mavjud bo‘ladi. Yoshlarga bu psixologik omillar haqida aniq va asoslangan tushunchalar berish lozim. Bu oilaviy nizolarning oldini olishga asos bo‘ladi. Yana bir jihat esa, oilada, oila a’zolari o‘rtasida bir-birini tushunishning yetishmasligi, hamda ko‘pincha muloqot jarayonida bir-birini tinglashni, anglashni bilmaslikdan nizolar kelib chiqadi.

Alohida ta’kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota munosabatlarida paydo bo‘ladigan fikrlar va qarashlardagi ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni shaxslar o‘zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo‘lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma’naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to‘g‘risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, oilaviy turmush masalalari, oila-nikoh muammolari, oiladagi o‘zaro munosabatlar bo‘yicha tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, hali ham ularning yetarli darajada yechimi masalasi mavjud emas. Oilaviy munosabatlar va uning muhim jihatlari, uning asoschilari bo‘lmish er-xotin va unda voyaga yetayotgan farzandlar kamoloti, oiladagi shaxslararo munosabatlar va unda yuzaga keladigan nizolar shakllanish jarayonini ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda oilaviy



munosabatlarni muvofiqlashtirishda oilaviy psixoterapiya vositalari va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular oilaning me’yorli faoliyat ko‘rsatishiga, undagi ziddiyatlarning turlari va ularning shakllanish sabablarini o‘rganishga, profilaktikasini tashkil etishga hamda shaxslararo munosabatlar muvofiqligini ta’minlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. E.G‘oziyev, M.Xolmuhammedov, X. Ibrohimov. “Psixologiya metodologiyasi”. -T.: ”Sharq”, 2002.-123 b
2. G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov “Oila psixologiyasi” o‘quv qo‘l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. 2008 y. “Sharq” nashriyoti.
3. Olimov L.Y. Umumiyl psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
4. H. Norqulov, G. Tuychiyeva “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti “Oila psixologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Toshkent – 2021
5. Лидовская Н.Н. Взаимоотношения супругов в незарегистрированном браке. диссертация ... кандидата психологических наук. Санкт-Петербург, 2009. -212 с.
6. Орлова И.Н. Социально-психологическая готовность студенческой молодежи к созданию семьи. Санкт-Петербург, 2013, -130 с.